


25. Saniya, kvadratning har bir tomoniga musbat son yozib chiqdi va har bir uchiga, shu uchga yopishgan ikki tomondagi sonlar ko'paytmasini yozdi. Uchlardagi sonlar yig'indisi 15 ga teng. Kvadrat tomonlaridagi sonlar yig'indisi nechaga teng
(A) 6 (B) 7 (C) 8 (D) 10 (E) 15

26. Sofiyada 52 ta bir xil, teng yonli, to'g'ri burchakli uchburchak bor. U bir qancha uchburchaklardan kvadrat hosil qilmoqchi. Sofiya nechta turli o'lchamli kvadratlar yasay oladi?
(A) 6 (B) 7 (C) 8 (D) 9 (E) 10



27. Kleo metal sferalar yordamida piramida yasamoqda. Piramidaning asosi rasmda ko'rsatilgandek 4 x 4 sferadan tashkil topgan kvadratdir. Keyingi qavatlarda 3 x 3 sfera, 2 x 2 sfera va uchida 1 ta sfera bor. Sferalarning bir-biriga tegib turgan nuqtalariga yelim suritilgan. Kleo nechta nuqtaga yelim surib chiqqan?
(A) 72 (B) 85 (C) 88 (D) 92 (E) 96

28. To'rtta bola, 10 m x 25 m suv hovuzining to'rtta burchagida turishibdi. Ularning murabbiyi hovuzning bir tomonida turibdi. Murabbiy bolalarni chaqirganda, 3 ta bola hovuzdan chiqib eng qisqa yo'l bilan murabbiyning oldiga borishadi. Bolalar umumiy 50 m yurishdi. Murabbiy to'rtinchi bolaga yetib borishi uchun qancha eng qisqa yo'l bosib o'tishi kerak?
(A) 10 m (B) 12 m (C) 15 m (D) 20 m (E) 25 m

29. Anna, Boris va Karl poyga o'ynashdi. Ular bir vaqtda boshlashdi hamda ularning tezliklari o'zgarmas edi. Anna tugatganda, Boris yana 15 m va Karl yana 35 m yugurishi kerak edi. Boris tugatganda, Karl yana 22 m yugurishi kerak edi. Ular qancha masofaga yugurishdi?
(A) 135 m (B) 140 m (C) 150 m (D) 165 m (E) 175 m

30. Quyidagi gaplar o'ylangan to'rt xonali sonni topishda ko'maklashadi.

4 **1** **3** **2** Ikkita raqam to'g'ri lekin noto'g'ri joylashgan

9 **8** **2** **6** Bitta raqam to'g'ri va to'g'ri joylashgan

5 **0** **7** **9** Ikkita raqam to'g'ri, ulardan bittasi to'g'ri joylashgan, boshqasi esa noto'g'ri joylashgan

2 **7** **4** **1** Bitta raqam to'g'ri lekin noto'g'ri joylashgan

7 **6** **4** **2** Hech qaysi raqam to'g'ri emas

To'rt xonali sonning oxirgi raqami qanday?
(A) 0 (B) 1 (C) 3 (D) 5 (E) 9

"KENGURU" xalqaro matematika tanlov-o'yin



Imtixon 1 soat 15 daqiqa davom etadi. Har bir savolga faqatgina bitta to'g'ri javob mavjud (A-D). Belgilangan vazifaning doirasi va mazmuni uning to'liq bajarilishini talab qilmaydi; Vazifa savollariga maktab dasturidan tashqari savollar ham kiritilishi mumkin.


2020 yil 29 mart

7-8 sinflar

3 - balli masalalar

1. Quyidagi to'rtta sondan nechitasi tub son? 2, 20, 202, 2020
(A) 0 (B) 1 (C) 2 (D) 3 (E) 4


2. Rasmdagi muntazam ko'pburchaklarda belgilangan burchaklarning qaysi biri eng katta?




3. Migel har kuni 6 ta olimpiada misolini yechadi, Lazaro esa har kuni 4 ta olimpiada misolini yechadi. Migel 4 kunda yechadigan misollarini hammasini yechish uchun Lazaroga necha kun talab etiladi?
(A) 4 (B) 5 (C) 6 (D) 7 (E) 8

4. Berilgan kasrlardan qaysi biri eng katta qiymatga ega?
(A) $\frac{8+5}{3}$ (B) $\frac{8}{3+5}$ (C) $\frac{3+5}{8}$ (D) $\frac{8+3}{5}$ (E) $\frac{3}{8+5}$

5. Katta kvadrat kichikroq kvadratlarga bo'lingan. Bir kvadratning diagonalini ham chizilgan. Katta kvadratning qancha qismi bo'yalgan?
(A) $\frac{4}{5}$ (B) $\frac{3}{8}$ (C) $\frac{4}{9}$ (D) $\frac{1}{3}$ (E) $\frac{1}{2}$



6. Futbol bo'yicha musobaqada 4 ta jamoa bor. Har bir jamoa qolgan hamma jamoalar bilan faqat bir martadan o'yinga tushadi. Har o'yinda, g'olib jamoa 3 ballga ega bo'ladi, mag'lub jamoa esa 0 ballga ega bo'ladi. Durrang bo'lgan holda ikkala jamoa ham 1 ballga ega bo'ladi. Barcha o'yinlar yakunlanganda, quyidagi umumiy hisoblardan qaysi birini hech bir jamoa to'play olmaydi?
(A) 4 (B) 5 (C) 6 (D) 7 (E) 8




7. Rasmda 36 ta bir xil uchburchakdan tashkil topgan shakl tasvirlangan. Shaklga kamida yana nechta shunday uchburchaklardan qo'shilsa oltiburchak hosil bo'ladi?
(A) 10 (B) 12 (C) 15 (D) 18 (E) 24

8. Kanga quyidagi sonlardan uchtasini bir-biriga ko'paytirmoqchi: -5, -3, -1, 2, 4 va 6. U qanday eng kichik natijaga erisha oladi?
(A) -200 (B) -120 (C) -90 (D) -48 (E) -15

9. Agar Jon maktabga avtobusda borib, piyoda qaytsa, u yo'lga 3 soat sarflaydi. Agar u avtobusda borib, avtobusda qaytsa, yo'lga 1 soat ketadi. Jon maktabga piyoda borib, piyoda qaytgan taqdirda, u yo'lga qancha vaqt sarflaydi?

- (A) 3.5 soat (B) 4 soat (C) 4.5 soat (D) 5 soat (E) 5.5 soat




10. 3 x 3 bo'lgan kvadratning har bir katagiga bir son yozilgan. Afsuski, sonlarga siyoh to'kilib ketgani sababli ular ko'rinmaydi. Ammo, har bir qatordagi va ikki ustundagi sonlar yig'indisi quyida strelkalar yordamida ko'rsatilgan. Uchinchi ustundagi sonlar yig'indisi nechaga teng?

- (A) 41 (B) 43 (C) 44 (D) 45 (E) 47

4 - balli masalalar


11. Atowndan Cetowngacha eng qisqa yo'l Betown orqali o'tadi. Yo'l bo'yi ikkita yo'l belgisi o'rnatilgan. Singan belgida qanday masofa yozilgan edi?

- (A) 1 km (B) 3 km (C) 4 km (D) 5 km (E) 9 km




12. Anna mart oyida har kuni o'rtacha 5 kmdan piyoda yurishni rejalashtirdi. 16-mart tuni, uxlashdan oldin, u shu vaqtgacha 95 km yurganini hisobladi. Bundan keyin, o'ying qolgan kunlarida, qo'lyan maqsadiga erishish uchun, u o'rtacha necha km yurishi kerak?

- (A) 5.4 km (B) 5 km (C) 4 km (D) 3.6 km (E) 3.1 km



13. Quyidagi javoblardan qaysi biri rasmdagi piramidaga tepadan qaralgandagi holatni tasvirlaydi?




14. Sinfidagi har bir o'quvchi yo suzadi, yo raqsga tushadi. Sinfning beshdan uch qismi suzadi va beshdan uch qismi raqsga tushadi. Beshta o'quvchi ham suzadi, ham raqsga tushadi. Sinfda nechta o'quvchi bor?

- (A) 15 (B) 20 (C) 25 (D) 30 (E) 35


15. Sashaning bog'i rasmda ko'rsatilgan shaklga ega. Barcha tomonlar o'zaro yo parallel, yo perpendikular. Bir qancha o'lchamlar berilgan. Sashaning bog'ining perimetrini toping?

- (A) 22 (B) 23 (C) 24 (D) 25 (E) 26



16. Katta kvadrat to'rtta bir xil to'g'ri to'rtburchak va bitta kichkina kvadratdan tashkil topgan. Katta kvadratning yuzi 49 cm² va bir to'g'ri to'rtburchakdagi AB diagonalning uzunligi 5 cm. Kichkina kvadratning yuzi nechaga teng?

- (A) 1 cm² (B) 4 cm² (C) 9 cm² (D) 16 cm² (E) 25 cm²



17. Vernerning oylik maoshi, boshlig'ining oylik maoshidan 20% ni tashkil etadi. Boshlig'ining oylik maoshi Vernerning oylik maoshidan necha foizga ko'p?


- (A) 80% (B) 120% (C) 180% (D) 400% (E) 520%

18. Andrey 27 ta bir xil, kichkina kub sotib oldi. Kublarning ikki qo'shni tomoni qizil rangda. Andrey kichkina kublarning hammasidan foydalanib, bitta katta kub yasadi. Katta kubning to'liq qizil rangli tomonlari ko'pi bilan nechta bo'lishi mumkin?


- (A) 2 (B) 3 (C) 4 (D) 5 (E) 6

19. Iren bir xil kubiklardan "shahar" qurdi. Quyidagi rasmlardan birida "shahar"ga tepadan qaralgandagi tasvir, boshqasida esa "shahar"ga yon tomondan qaralgandagi holat tasvirlangan. Lekin, biz yon tomondan olingan rasmni aynan qaysi yon tomondan olinganligini bilmaymiz. Iren qurilish uchun eng ko'p nechta kub ishlatgan bo'lishi mumkin?

- (A) 25 (B) 24 (C) 23 (D) 22 (E) 21



20. Aishada beshta katakka 1, 2, 3, 4 va 5 sonlari yozilgan bir tasma qog'oz bor. U qog'ozni buklaganda kataklar ustma-ust tushadi va 5 ta qavat hosil bo'ladi.



Quyidagi tepa qavatdan pastki qavatgacha bo'lgan sonlar kombinatsiyalarining qaysi biri hosil bo'la olmaydi?

- (A) 3, 5, 4, 2, 1 (B) 3, 4, 5, 1, 2 (C) 3, 2, 1, 4, 5 (D) 3, 1, 2, 4, 5 (E) 3, 4, 2, 1, 5


5 - balli masalalar

21. 12 ta rangli kub bir qatorga taxlangan. Bu yerda 3 ta ko'k, 2 ta sariq, 3 ta qizil va 4 ta yashil kub bor, lekin bunday ketma-ketlikda joylashgan emas. Qatorning bir boshida sariq kub, boshqasida esa qizil kub turibdi. Qizil kublar hammasi yonma-yon kelgan. Yashil kublar ham hammasi yonma-yon kelgan. Chapdan o'ninchi turgan kub ko'k rangda. Chapdan oltinchi bo'lib turgan kubning rangi qanday?

- (A) Yashil (B) Sariq (C) Ko'k (D) Qizil (E) Qizil yoki ko'k

22. Zeyda kvadrat qog'ozni olib, ikkita uchini, rasmda ko'rsatilgandek, diagonalga olib kelib bukladi va natijada quyidagi to'rtburchakni hosil qildi. Shu to'rtburchakdagi eng katta burchak necha gradusga teng?

- (A) 112.5° (B) 120° (C) 125° (D) 135° (E) 150°



23. To'rt xonali A sonining yarimi 2 ga karrali, A sonining uchdan biri 3 ga karrali va beshdan biri 5 ga karrali bo'lsa, nechta shunday A sonlar mavjud?

- (A) 1 (B) 7 (C) 9 (D) 10 (E) 11

24. Raqs musobaqasining yakuniy bosqichida 3 ta hay'at a'zosi beshta ishtirokchining har biriga 0, 1, 2, 3 yoki 4 ball beradi. Har bir hay'at a'zosi beshta ishtirokchining hammasiga turlicha baho berdi. Adam, rasmda ko'rsatilgandek, ishtirokchilar to'plagan umumiy ballarini hamda bir nechta alohida ballarni biladi. Adam uchinchi hay'at a'zosi bilan nechta baho olgan?

| | Adam | Berta | Klara | David | Emil |
|----------|------|-------|-------|-------|------|
| I | 2 | 0 | | | |
| II | | 2 | 0 | | |
| III | | | | | |
| Yig'indi | 7 | 5 | 3 | 4 | 11 |

- (A) 0 (B) 1 (C) 2 (D) 3 (E) 4